

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-
PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI**



FARZANDINGIZNING HUQUQI HIMOYALANGAN

nomli ota-onalar uchun metodik qo‘llanma



Toshkent 2022-yil

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy metodik Kengashining 2022-yil 29-martdagi 1-sonli yig‘ilish qarori bilan ma’qullangan.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori **L.R.Gaynutdinov**ning umumiy tahriri ostida tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

S. Mo‘minov

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti.

Taqrizchilar:

F.Qodirova p.f.d., professor

Chirchiq DPU Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasini mudiri.

X. Raximova pedagogika fanlari bo‘yicha f.n.d.

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrasini katta o‘qituvchisi.

G.Alimova

Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti.

KIRISH

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni 20-modda.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan deb qabul qilingan bolalar, ularning ijtimoiy ahvoli, ularning ta'lim olish masalasi hozirgi kunda butun dunyo miqyosidagi eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki muammoning tegishli ravishda ijobiy yechimining topilishi insoniyat kelajagini, farzandlarimizning farovon turmush kechirishining muhim omillaridan biridir.



Ayni paytda yer kurrasi bo'ylab sodir bo'layotgan turli tabiiy ofatlar, ekologik balansning buzilishi, va buning oqibatida insoniyat hayoti, uning imun tizimining buzilishi ehtimolini tug'dirmoqda. Bu esa o'z navbatida ayollarning aksariyatida homilani sog'lom ko'tarishi va bolaning ona qornida muvaffaqiyatli rivojlanishiga katta to'siq bo'lishi oqibatida bolalarning aqliy yoki jismoniy nogiron bo'lib tug'ilishiga sabab bo'lmoqda. Ayni paytda bu holat butun dunyo

hamjamiyatining diqqat markazida turib, oldini olish chora tadbirlarini topish bilan bir qatorda, imkoniyati cheklangan bo'lib tug'ilgan yoki orttigan bolalarni jamiyatda, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar ustida ish olib borilmoqda. Buning uchun butun diqqat e'tibor ularga ilk yoshidan maxsus yondoshuvlar orqali o'z tengqurlari orasida sifatli ta'lim olishini ta'minlash masalasi keskin ko'tirilgan. Jumladan Respublikamizda ham bu borasida izchil ish olib borilmoqda. Sobiq sovet tuzimi davrida jismoniy va ruhiy riqojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limiga munosabat, ularni faqat maxsus sharoitlarda, faqat o'ziga o'xshaganlar orasidagina ta'lim olishi mumkin degan yondoshuvning endilikda o'zini oqlamayotganligi tan olinib, ularning umumiy tarzda soglom tengqurlari qatorida ta'lim olishi borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Chunki bugungi kunda bu bolalar, ularning nuqsonlari, imkoniyatlari masalasi haqidagi turli-tuman, aksariyat hollarda esa qarama-qarshi munosabatlar mavjud bo'lib, bunday bolalar va ularning ta'limiga bo'lgan munosabatni jiddiy va qaytadan ko'rib chiqish ehtiyoji kelib chiqmoqda. Ular uchun qulay hamda sifatli ta'lim berishni ta'minlash, davlatimizning siyosati darajasidagi masalalar qatoridan o'rin

olgan. Shu bois mazkur qo'llanmada alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar, ularning maxsus, umumiy, yakka tartibdagi ta'limining chuqur tahlili keng pedagogik jamoa hukmiga, muhokamasiga havola qilinadi. Qo'llanmada alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'limi bo'yicha mavjud tajribalar, fikrlar, munosabatlar chuqur o'rganilgan, mavjud dalillarga asoslangan ma'lumotlar keltirilgan. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'rganish bo'yicha O'rta Osiyo allomalari va mutafakkirlaridan: Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ahmad Farg'oniylar ishlab chiqqan ruhiyatni o'rganish metodlari, Mir Alisher Navoiyning insonlarning ichki kechinmalari, bola tarbiyasi haqidagi fikrlari va barcha asarlarida ta'limga oid ta'kidlab o'tgan fikrlari, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari, zamondoshlarimiz M.G.Davletshin, A.Asqarxo'jaev, M. Vohidov, E. G'oziev, G'.B.Shomuarov, K.Mamedovlar tomonidan umumiy va maxsus psixologiya, oila psixologiyasi, bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar materiallari o'rganildi. Butun dunyodagi yirik psixologlardan J.Piaje, E.Segen, A.Petseld, Luriya, L.S.Vygotskiy, Kashenko, Korsunskiy, T.A.Vlasova, S.Pevzner, V.V. Lebedinskiy, P.P.Blonskiy, L.V.Zankovlarning ilmiy qarashlari, dalillari, o'ranildi va qo'llanmada keltirilib o'tildi.

Shu bilan bir qatorida alohida ehtiyojli bolalar, ularning xususiyatlari, ular uchun yaratilgan inklyuziv sharoitlar, inklyuziv va korreksion ta'lim, bu ta'limgi qabul qilish mezonlari batafsil yoritilgan. Har bir ota-ona bu qo'llanmada bu boradi qiziqtirgan savollariga javob topa oladi.

Nogironlik ayb emas

Farzandingiz nogiron tug'ildimi? Aslo o'ksinmang! Siz va farzandingiz davlatimiz himoyasida. Respublikamizda hozirgi kunda nogironligi bo'lgan alohida ehtiyojli bolalar ta'limiga zamonaviy yondoshuv, ularning ta'limiga alohida e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Buni biz davlatimiz rahbarining qator farmon va qarorlarida yaqqol ko'rib bormoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv



ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabr kuni "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi №-638-sonli Qarori o'z aksini



topdi. Undan tashqari 2021-yil 21-dekabr "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-sonli, 2021-yil 4-oktabrdagi "Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5255-sonli Qarorlari qabul qilindi. Ta'lim sohasiga kirib kelgan bu yo'nalishni joriy etish asta sekinlik bilan qonuniy asosda amalga oshirilmoqda. Bu esa respublikamizning ta'lim tizimini rivojlantirishdagi oqilona va izchil yo'l tutish hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimiga zamon talabiga javob beradigan, jahon miqyosida eng dolzarb deb sanalib kelayotgan inklyuziv ta'lim 2021-2022 o'quv yiladan joriy etilmoqda. Keng jamoatchilik orasida targ'ibot tashviqot ishlari olib borilmoqda. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning ota-onalariga tushuntirish ishlarini berib borish ishlari boshlandi.

Sizning farzandingiz ham barcha bolalar kabi kelajagi porloq, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish imkoniyatiga ega ekanligini tasavvur qilasizmi? Biz hozirgi kunda har qanday nogironligi bo'lgan bolalarni "Alohida ehtiyojli bolalar" deymiz. Ular jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotda barcha qatori teng huquqlilik asosida samarali ishtirok etishi uchun davlatimiz tomonidan shart-sharoitlar yaratib borilayotganligidan xabardormisiz? Endi sizning farzandingiz maxsus maktab, maktab-internatlarida emas ommaviy maktabda ta'lim olishi uchun keng ko'lamda ishlar tashkil qilindi.

Respublikamizda inklyuziv ta'lim orqali barcha toifadagi bolalardagi aqliy, ruhiy autistik, jismoniy, eshitishi, ko'rishidagi muammolari bo'lgan bolalar ta'lim olishi bilan bir qatorda muammolarini korreksiya va reabilitatsiya ishlari amalga oshirilib, ijtimoiy moslashishi va jamiyatda o'z o'rnini topishiga erishish, jamiyatimizning bugungi kuni dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda inklyuziv ta'lim butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olinmoqda. Bu borada respublikamizda ta'lim tizimini jahon standartlariga tenglashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Barcha ota-onalar kabi sizning farzandingiz huquqi davlatimiz tomonidan himoyalangan. Ba endilikda barcha bolalar qatori ta'lim olish huquqiga ega. Respublikamizda inklyuziv ta'lim joriy qilindi.

INKLYUZIV TA'LIM NIMA?

Respublikamizda hozirgi kungacha alohida ehtiyojli (kar, zaif eshituvchi, aqli zaif, harakati cheklangan, ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi) bolalar uchun maxsus maktab-internatlar mavjud bo'lib ular faqat shu maktab-internatlarda ta'lim olishi mumkin edi. Endi O'zbekistonda ta'lim tizimiga zamon talabiga javob beradigan, jahon miqyosida eng dolzarb deb sanalib kelayotgan **inklyuziv ta'lim** 2021-2022 o'quv yilidan joriy etildi va shunga binoan barcha ota-onalar alohida ehtiyoji bo'lgan farzandlarini ta'limning o'zlari ma'qul deb tanlagan turiga ta'lim olish uchun berishga haqlidir. Shaharlarda hamda Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim ta'limni joriy qilish va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan



umumta'lim maktabida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni ochilmoqda. Barchamizda aslida **“Inklyuziv ta'lim” qanaqa ta'lim?** - degan savol tug'iladi albatta.

Inklyuziv ta'lim- bu rivojlanishida va ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarning sog'lom tengqurlari bilan bir sinfda ta'lim olishidir. Inklyuziv a'lim – bu shunday ta'lim-tarbiya jarayoniki unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda o'z uyi va hududida ularning ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan, ta'limdagi ehtiyojlarini hisobga olingan holda maxsus yordam ko'zda tutilgan maktablarda o'z tengqurlari bilan ta'lim olishidir. Inklyuziv ta'lim sinflarida jami o'quvchilar soni 30 nafardan oshmasligi kerak. Ushbu sinflarda umumiy o'rta ta'lim dasturlari bo'yicha ommaviy tarzda o'qiyotgan o'quvchilar bilan birga maxsus (korreksion) dasturlar asosida o'qiyotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar soni 3 nafardan oshmasligi lozim. Inklyuziv ta'lim sinflariga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o'quvchilar qabul qilinadi. Maktablarda inklyuziv ta'lim sinflari soni bir parallel sinflarda 2 tadan ortiq tashkil etilmaydi.

Korreksion ta'lim – umumta'lim maktabi tarkibida bir xil muammolari bo'lgan bolalar uchun alohida sinf tashkil etilishidir. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda o'quvchilar soni amaldagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) sinflaridagi o'quvchilar soni me'yorlariga muvofiq ravishda belgilanadi. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda o'qitish va tarbiyalash jarayoni o'quvchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o'quvchilar qabul qilinadi. Maktablarda boshlang'ich tayanch korreksion sinflari soni bir parallel sinflarda 2 tadan ortiq tashkil etilmaydi. Bunda belgilangan maktabning 1-sinflari 5 ta bo'lsa, shundan 2 tasida tashkil qilinadi.

Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Maktablar alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;



- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Albatta sizda **“Men bolamni shu inklyuziv ta'limga qanda joylashtiraman?”** degan savol tug'ildi. Bu savolga quyidagi bo'limda batafsil javob topasiz.

O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi:



Maktabning inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o'quvchilar yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi. Ya'ni 9 yoshli bolani ham 1-sinfga qabul qilish

mumkin.

O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish hududiy xalq ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o'rinlarda — psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya) xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga boshqa ma'muriy-hududiy birlikdan kelib o'qish istagini bildirgan o'quvchilar o'quvchini qabul qilayotgan maktab joylashgan hududning psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyasi yo'llanmasiga asosan qabul qilinadi.

O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish o'quv yili boshlanguncha hamda o'quv yili davomida amalga oshiriladi va maktab direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga yo'llangan har bir o'quvchiga ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan shaxsiy hujjatlar yig'majildi rasmiylashtiriladi va maktab rahbariyatiga taqdim etiladi.

O'quvchining shaxsiy hujjatlar yig'ma jildida quyidagi hujjatlar bo'ladi:
ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasi;

psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi;

ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);

o'qish joyidan ta'limning muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq-atvori, o'quvchiga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma'lumotnoma va tavsifnoma (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);

o'quvchining yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko'chirma.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);

tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomielit, miopatiya, osteomielit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi — pakanalik);

aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;

aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji);

intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy



rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul

qilganda, tutqanoq 1 oyda 1 martadan oshmagan paytda).

Yana bir muhim jihatga e'tiboringizni qaratamiz. Hamma nogiron? Alohida ehtiyojli bolalarmaktabga qatnab o'iydimi?

Quyidagi toifadagi bolalar inklyuziv va boshlang'ich tayanch korreksion sinfga qabul qilinmaydi:

aqli o'ta zaif bolalar (imbitsil, idiotiya darajasidagi oligofreniya);

xulq-atvorida og'ir buzilishlar, hissiy-irodaviy sohasida (organik) nuqsonlari bo'lgan bolalar;

tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan, mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan va o'z-o'ziga xizmat ko'rsata olmaydigan bolalar;

ko'r-kar-soqov bolalar;

tez-tez takrorlanadigan epileptik tutqanoqdan aziyat chekadigan (epileptik demensiya, kunduzgi va tungi vaqtlarda tutqanoq'i tez-tez takrorlanadigan) bolalar;

markaziy asab tizimiga shikast yetganligi tufayli siydik va najasini ushlab turolmaydigan bolalar.

Inklyuziv ta'limning maxsus ta'limdan afzalligi nimada?

Hamkorlikdagi (inklyuziv) ta'lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan ta'limdir. Respublikamizda inklyuziv ta'lim jahon tajribasi va siyosati kabi eng muhim, zamonaviy siyosat bo'lib kelmoqda.

Inklyuziv a'lim – bu shunday ta'lim-tarbiya jarayoniki unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda o'z uyi va hududida ularning ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan, ularning ta'limdagi ehtiyojlari hisobga olingan holda maxsus yordam ko'zda tutilgan maktablarda o'z tenqurlari bilan ta'lim olishi demakdir.

Korreksion sinflar, unda ta'lim oladigan o'quvchilar tashxisi, ularning psixologik xususiyatlari

Maktabda boshlang'ich tayanch korreksion sinflar quyidagi tartibda tashkil etiladi. Maktabda boshlang'ich tayanch korreksion sinflar hududdagi aholi ehtiyoji va ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar taklifi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi hududiy xalq ta'limi boshqarmasi buyrug'iga ko'ra tashkil yetiladi. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflar tashkil yetilgan maktablar faoliyati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi hamda hududiy xalq ta'limi boshqarmalari tomonidan metodik ta'minlanadi va muvofiqlashtiriladi. Ya'ni alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'limi uchun zaruriy metodikalar bilan boyitadi. Maktabning boshlang'ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat yetiladi. O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish hududiy xalq ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil yetilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o'rinlarda — psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya) xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Tayanch korreksion sinflarda faoliyat olib boruvchi maxsus mutaxassislar

Aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar korreksion sinflarida –



Oligofrenopedagog;

Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar korreksion sinflarida-
Tiflopedagog;

Autistik sferasida muammsi bo'lgan bolalar sinfida qayta tayorlovdan o'tgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar bolalar korreksion sinflarida –

Surdopedagog;

Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalar korreksion sinflarida - qayta tayorlovdan o'tgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi va Logoped.


PEDAGOG XODIMLAR FAOLIYATI VA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK

Oila bilan ishlashning asosiy maqsadi - barcha oila a'zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart - sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek, bolani va uni himoya qilish, turli omillarning shaxsiy bolaning rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilish.

Maktablarda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilarining salohiyatini rivojlantirish maqsadida o'quvchilar uchun individual o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflardagi ta'lim-tarbiya jarayonining nazorati tegishli yo'nalish bo'yicha maxsus defektologik ma'lumoti bo'lgan defektolog o'qituvchidan iborat sinf

rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda tegishli yo'nalish bo'yicha maxsus defektologik ma'lumoti bo'lgan defektolog o'qituvchi sinfda barcha fanlardan maxsus metodika asosida o'qitadi va darsdan keyin maxsus yordam ko'rsatish xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boradi. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda barcha fanlar maxsus o'quv reja va inklyuziv ta'lim laboratoriya bo'limi



tomonidan tayorlandan adaptiv dasturlar asosida o'qitiladi. Boshlang'ich tayanch koreksion sinf o'qituvchisi barcha fanlarni o'qitishda koreksion yo'naltirilgan usullar va texnologiyalar asosida amalga oshiradi. Boshlang'ich tayanch koreksion sinf o'quvchilariga maktabda tibbiy yordam ko'rsatilishini muvofiqlashtiriladi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg'ulotlarni, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlarni olib boradi. Zarurat bo'lganda o'quvchilar bilan qo'shimcha yakka tartibda mashg'ulotlar tashkil etiladi. O'quvchilarning o'quv-tarbiya jarayonida ishtirokini ta'minlash hamda ularning individual (moslashtirilgan) ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda tyutorlar yaqindan yordamlashadi. Boshlang'ich tayanch koreksion sinflarda o'quvchilar soni amaldagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar maktab-internat sinflaridagi o'quvchilar soni me'yorlariga muvofiq ravishda belgilanadi(ya'ni (bitta sinfda 8 nafardan kam bo'lmagan). Hozirgi kunda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar ichida Respublikamizda eng kam o'rganilgan toifa –bu Autistik sferasi buzilgan bolalar hisoblanadi. Boshlang'ich tayanch koreksion sinflar, unda ta'lim oladigan ASB o'quvchilar bilan ishlash o'ziga xos yondoshuv talab qiladi, va shu bilan bir qatorda bunday bolalar ta'limini yo'lga qo'yishda ota-onaning hamkorligiga birinchi o'rinda turadi.



Autistik sferasi buzilgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch koreksion sinflarda ta'lim maxsus adaptiv o'quv reja va dastur asosida o'qitiladi. Har bir fanning o'qitilishi maxsus yondoshuv va maxsus koreksiyaovchi usullarda olib boriladi. Dastlabki bosqichda

darslar aksariyat o'yin, interfaol, rivojlantiruvchi usullarda olib boriladi. Bu bolalarning bilimini baholashda o'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatidan va imkoniyatidan kelib chiqishi talab yetiladi. Ularning aksariyati genetik va yekologik omillarning kombinatsiyasidan ta'sirlanganligi ye'tiborga olinishi talab yetiladi. Shu sababli, dastlabki 18 oy bolalar bilan maxsus himoyalovchi muhit va munosabatda bo'lish muhim ahamiyatga yega. Autizm umumiy tushuncha singari yuqumli kasallik yemas. Autistik bolalarning 70 foizida aqliy zaiflik mavjud bo'lsa, 10 foizida yuqori intellektni kuzatish mumkin. Insonlarda giperaktivlik buzilishi, diqqat yetishmasligi, epilepsiya va kayfiyat buzilishi ham autizm bilan kechishi mumkin.

Korreksion mashg'ulot-bu ASB o'quvchining hususiyatlaridan kelib chiqqan holda bolaga moslashgan adaptiv mashg'ulot tarzida olib borilishi talab yetiladi. Ota –onalarning bilimi va imkoniyatlari autizmli bolalarning aqliy va ruhiy

rivojlanishi, nutqiy tafakkurini shakllantirish borasida qo'shimcha ishlarni olib borishi ham muhim ahamiyatga ega. Maxsus korreksion mashg'ulotlar esa reabilitatsiya jarayonining sifatli kechishini ta'minlaydi. Bu orqali bolaning mustaqil xatti-harakatlarini nazorat qilish, kunlik hayot ritmiga mos yashashga tayyorlaydi. Korreksion mashg'ulotga jalb qilinadigan autistik sferasi buzilgan bolaning qisqa vaqt ichida ijobiy o'zgarishi yaqqol namayon bo'ladi.

Ota-onani hamkorlikka jalb qilishning afzalliklari

- ta'lim jarayoniga qamrab olingan kunga qadar o'quvchi hayotining tarixini yetkazib bera oladi;
- o'quvchi haqidagi muhim tibbiy ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin;
- vaqt o'tishi bilan dasturlashning uzluksizligini ta'minlashga yordam berishi mumkin;
- bolaning uyga va jamiyatga bo'lgan qiziqish va intilishlari, hayotiy ko'nikmalarga oid muhim ma'lumotlarga ega bo'ladi;
- maqsad va samarali strategiyalarni ishlab chiqishda yordam berishi mumkin;
- uy sharoitida bolaning shaxsiy mahoratini mashq qildirish, ularni mustahkamlash, umumlashtirish va saqlash uchun imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

Oila bilan uyushgan hamkorlik jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- oilaning yashash sharoitlarini o'rganish;
- oilaning umumiy muammolari va xususiyatlari, va boshqalardan farqini aniqlash;
- oilaning maqsadlari va umidlarini aniqlashtirish;
- javob berish shakllarini kuzatish (ular jim, gapirishadi, janjallashishadi, o'zini tajovuzkor tutishadi, ishonmaydilar va hokazo);
- bu oilaga yordam bergan va hozirda yordam berayotganlarni o'rganish;
- uning a'zolarining oilasidan chiqishining ta'siri;
- oilaning o'tmishini o'rganish;

- oila a'zolarining shaxsiy xususiyatlarini o'rganish.

O'quv

Eng asosiy maktab va oilaning hamkorligidan kutiladigan natijalar:

- maktabdan kattalar hayotiga o'tishda;
- ishga joylashish imkoniyatlarida;
- keyingi oliy ta'lim haqida ma'lumot berishda;
- o'quvchining shaxsiy qiziqishlarini eshitish va inobatga olishda;
- turar joy variantlarida;
- transport ehtiyojlarida;
- tibbiy ehtiyojlarida;
- jamoaviy dam olish va bo'sh vaqt o'tkazish imkoniyatlarida;
- oilaviy va do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yishda;
- vasiylik va mustaqil hayot uchun ko'nikmalarni shakllantirishda.






jarayonini tashkil etishga oid sharoitlar

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (pedagog-maxsus o'qituvchi, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash masalasi hal etilmoqda. Bunday bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan va choralar ko'rilmogda. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun zarur bo'lgan uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga karatilgan chora-tadbirlarni amalga oshiriladi. Jamoatchilik o'rtasida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv tarzda o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib boriladi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllari joriy etiladi.

Oila bilan hamkorlikning ahamiyatini oshirish:

- oilada, ota-ona, buvi, bobo, aka, uka va urug' qarindoshlari bilan birgalikda yashash, ular haqida ma'lumotga ega bo'lishga tayyorlash;
- oiladagi munosabatlar, muomala madaniyatini bilishi;
- mahalla, mahalladagi bolalar bilan yaqindan muloqotda bo'la olishga tayyorlab borish;
- oilaviy marosimlar, tantanalar haqida tushuncha berib borish, ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;
- har bir bola barcha oila a'zolari qatori oilasining ajralmas, kerakli a'zo ekanligini his qildirish;

Imkoniyati cheklangan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Ta'lim jarayoni

uchun zarur bo'lgan mebel, texnik vositalar bilan jixozlangan sinf xonalari (audio, video, multimediya o'quv materiallari, kompyuter texnikasi, ko'rgazmali va tarqatma materiallar) bilan jihozlanishi ko'zda tutilgan.

DAVR TALABI VA DAVLATIMIZ SIYOSATI

Davlatimiz siyosati, davr talabi bolaning bolalik huquqini ta'minlashda, insonparvarlik nuqtai nazardan kelib chiqib, maxsus ta'limning har bir yo'nalishining ish mazmuni – bolalarga ta'lim berish sifati va samaradorligi o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash bilan belgilanishiga yo'naltiriladi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan har bir bolaning o'z uyida uyining oldidagi maktabda inklyuziv ta'lim olishga tayyorlashda quyidagilar talab etiladi:

- sinf xonalarning metodik jihatdan talab darajada jixozlanganligi, kalendar mavzuli rejalarida o'tiladigan mavzulari bo'yicha ko'rgazmali, tarqatma , nutq materiallari,

- egallanadigan tushuncha, bilim, malaka alohida aks ettirilganligi;

- har bir o'qituvchi va maxsus pedagog o'quv yili, choraklarga oldindan tayyor bo'lishi;

- sinf va korreksion xonalar rivojlantiruvchi o'yinchoqlar, rasm daftar, rangli qalamlar, qog'ozlar, yelim, qaychi, plastillin, pazllar, konstruktor, legolar bilan ta'minlanishi;

- kalendar mavzuli rejalarida o'tiladigan mavzulari bo'yicha ko'rgazmali, tarqatma, nutq materiallari aks ettirilganligi.

Ota onalar uchun eslatma!



Har bir ota-ona yuqoridagi qabul qilingan qonun, qaror va buyruqlarni o'rgangan holda o'zini va alohida ehtiyojli farzandlarini o'z vaqtida himoya qilish va qonuniy huquqlarini amalga oshirilishini o'z vaqtida talab qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Quyidagi xalqaro qabul qilingan inklyuziv ta'lim tamoyillari har bir bolaning bolalik huquqini himoyalashga qaratilgan Xalqaro hujjatlar asosida keltirilgan.

Agar alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchini tashxisi yengillashib yaxshi natijalar ko'rsatsa maktab-internatidan inklyuziv sharoitda ta'lim olishi uchun maktabga o'tkazish mumkin bo'ladi.

O'quvchining jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsoni yengil darajada bo'lib (psixik rivojlanishning orqada qolishi, yengil darajadagi aqli zaiflik, zaif eshituvchi, zaif ko'ruvchi, bolalar tserebral falaji va boshqalar), uning ta'lim-tarbiya olishi

uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan taqdirdagina amalga oshiriladi. Ota-onalar o'z xohishiga ko'ra o'quv yili davomida yoki u tugaganidan so'ng farzandini maktab-internatdan inklyuziv sharoitda ta'lim olishi uchun maktabga o'tkazish huquqiga ega bo'ladi. Ota-onalar farzandini maktab-internatdan maktabga o'tkazish uchun uning sabablarini ko'rsatgan holda xalq ta'limi boshqarmasiga ariza bilan murojaat qiladi. Ariza psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning ijobiy xulosasi olingach, xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan shu kunning o'zida o'qishni davom ettirish uchun tanlangan maktabga taqdim etish uchun o'quvchini maktabga o'tkazish to'g'risida yo'llanma beriladi. Yo'llanma berilganligi haqida o'quvchi ta'lim olayotgan maktab-internatga xat orqali ma'lum qilinadi. O'quvchi ta'lim olayotgan maktab-internat direktori xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan yuborilgan xatni olgach, shu kunning o'zida o'quvchini maktab-internat o'quvchilari safidan chiqarish to'g'risida buyruq qabul qiladi. Maktab-internat direktori mazkur buyruq bilan ota-onalarni tanishtirganligi to'g'risida imzo qo'ydirib, ularga mazkur Tartibning 18-bandida belgilangan hujjatlarni taqdim etadi va hujjatlar berilganligi to'g'risida tilxat oladi. Ota-onalar xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan berilgan o'quvchini boshqa turdagi maktab-internatga o'tkazish to'g'risidagi yo'llanmani psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasi hamda belgilangan hujjatlarni ilova qilgan holda o'qishni davom ettirish uchun tanlangan maktab direktoriga taqdim qiladi. Maktab direktori shu kunning o'zida o'quvchini maktab o'quvchilari safiga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqaradi. Maktab direktori o'quvchini maktab-internat o'quvchilari safiga qabul qilish to'g'risidagi buyruqdan ko'chirmani bir ish kuni ichida o'quvchi ilgari ta'lim olgan maktab-internatga ma'lumot uchun yuboradi. Ota-onalarning hujjatlarni olganligi haqidagi tilxati, xalq ta'limi boshqarmasining o'quvchini maktabga o'tkazish to'g'risida yo'llanma berilganligi haqidagi xati va o'qishni davom ettirish uchun tanlangan maktab direktorining o'quvchining o'qishga qabul qilinganligi to'g'risidagi buyrug'idan ko'chirma o'quvchining maktab-internatda saqlanadigan shaxsiy hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi. O'qishni davom ettirish uchun tanlangan maktab direktori maktab-internatdan o'tkazilayotgan o'quvchining o'quv jarayonlaridan chetda qolib ketmasligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rishi shart. Maktab-internat direktorining o'quvchilar safidan chiqarish to'g'risidagi buyrug'i hamda maktab direktorining o'quvchini maktab-internat o'quvchilari safiga qabul qilish to'g'risidagi buyrug'i chiqarilgach, uch kun ichida sinf jurnali va o'quvchilar harakati daftariga tegishli yozuv kiritiladi.

INKLYUZIV TA'LIM TAMOILLARI

1. Inson qadri uning qobiliyati, erishgan yutuqlari bilangina belgilanmaydi;
2. Har bir inson his qilish va fikrlash qobiliyatiga ega;

3. Har bir inson barcha bilan teng muloqot qilish va fikr bildirish huquqiga ega;

4. Barcha insonlar bir-biriga kerak, bir-birining yordamiga muhtojdir;

5. Haqiqiy ta'lim faqat samimiy munosabatlar orqali samarali amalga oshirilishi mumkin;

6. Barcha insonlar o'z tengqurlarining qo'llab-quvvatlashiga muhtoj.

7. Barcha insonlar tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashi va do'stligiga muxtoj.

8. Turfalik inson hayotining barcha qirralarini rivojlantiradi.

To'siqsiz muhit (maktabning barcha infrastuzilmasidan foydalanish imkoniyati).

- panduslar;
- liftlar, ko'tarma moslamalar;
- qo'riqlash xizmati xodimlarini ogohlantiruvchi qo'ng'iroqlar;
- maxsus jixozlangan yechinish xonalari va hojatxonalar;
- yozuvlarni Brayl yozuvida aks ettirilishi;
- zina tutqichlarda maxsus Brayl yozuvli ko'rsatkichlar;
- maxsus relefli qoplamali pollar;
- maxsus jihozlangan sinf va kutubxonalar.

Inklyuziv ta'lim elementlari:

- Umumta'lim maktablarida birgalikda ta'lim olish;
- Imkoniyatlarga moslashtirilgan individual rejalashtirish;
- Resurs o'qituvchilar yordami;
- O'z uyi, mahallasida yashab o'qish imkoniyati;
- To'siqsiz muhit.

Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

• O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;

• Tengdolariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;

• Ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish –insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

• O'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi;

• Yoramga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar.



Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtiyeji va qiziqishlari ortadi;

- O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- Yotsirash, yakkalanish kabi xususi yatlari yo'qoladi.

Ta'limni o'quvchilarning imkoniyatlarga yo'naltirish

- Ko'zi ojizning eshitish va taktil sezgisi yuqori bo'ladi. Ya'ni:
- Unga o'quv materialni eshitish va taktil sezgisi orqali idrok qilishga beriladi.

Eshitmaydigan bolaning ko'rish sezgisi o'tkir. Ya'ni:

- Unga o'quv materialni vizual ravishda qabul qilishga bering, ko'rsatib tushuntira olmagan qismini daktillab yoki imo ishora bn tushuntiring.

Aqliy faoliyati yengil darajada orqada qolgan bola. Ya'ni:

- Bunday bolaga o'quv materialni kompleks ravishda barcha analizatorlariga ta'sir etuvchi yondashuv zarur.

Ijodiy imkoniyatlari mavjud bolalar. Ya'ni:

- Harakat imkoniyati cheklangan o'quvchilarning qiziqishlarini qo'llab imkoniyat yaratib borish va shu yo'nalishda kasbga yo'llash

Iqtidorli bolalarni rivojlantiruvchi

- Har bir iqtidorli bolaning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash;
- Tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish.

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifalari

O'qituvchi darsda o'quv materialni barcha o'quvchilar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan o'quvchining imkoniyatiga yo'naltirgan holda beradi: Ko'rishida, eshitish va taktil sezgisidan, o'quvchining vizual qabul qilishiga diqqati, xotirasida muammosi bo'lgan bolaning barcha analizatoriga ta'sir qilgan holda ish olib boradi:

- O'quv jarayonini tashkil etish va olib borishda barcha o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda mos interfaol usullarni qo'llash, ayniqsa guruhlarda ishlash usullari samarali natija beradi;
- Maktab psixologi bilan hamkorlikda o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, rivojlantirish, ularni kasbga yo'naltirish va kasbgacha tayyorgarlik olib borish;
- O'quvchilarni faolligini rag'batlantirib borish va o'zlashtirishini baholashda rag'batlantiruvchi usulni qo'llash;
- Imkoniyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi ish turlarini tanlash;
- Oila, mahalla, jamoatchilik bilan;
- Hamkorlikda ishlash, o'quvchilarning ijodiy ishlarini jamoatchilik orasida namoyish qilish orqali o'zida ishonch tarbiyalash;
- O'zaro hamkorlikda ishlash usullarini qo'llash orqali do'stona munosabat muhitini yaratish kabilardir.



XULOSA

Xulosa o'rnida shu aytish mumkinki, inklyuziv ta'limning maqsadi — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Maktablar alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-sonli Farmoni va ushbu farmonda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich, boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (pedagog-defektolog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan. Undan tashqari jamoatchilik o'rtasida imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini keng joriy etish yuzasidan keng qamrovli ishlarni olib borish lozimligi diqqatga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabr “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi №-638-sonli Qarori.
4. Inklyuziv umumta’lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta’lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti, (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.
5. “Dakarskie ramki deystviy”- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel.
6. A.Turgunov. Kasb –hunarga yo‘naltirish o‘quv qo‘llanma T. 2019.
7. Sh.Mahmudova. Kasb kasalliklari darslik - T.: «Yangi asr avlodi», 2011.
8. U. Fayziyeva, D. Nazarova, F. Qodirova. “SURDOPEDAGOGIKA” malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma T.: “Sano standart” 2012-yil.
9. K.Jo‘raboyev “O‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha psixologik-pedagogik o‘yinlar, mashqlar va metodikalar Toshkent 2017.
10. V.V.Lapshin, B.P.Puzanov, “Основы дефектологии” учебное пособие, Moskva-1990.
11. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson-Press” nashriyoti, Toshkent-2021.
12. www.ziynet.uz
13. www.klex.ru
14. www.window.edu.ru
15. <https://www.ahenkrehabilitasyon.com/ozel-egitimde-kaynastirma-egitimi/>
16. http://www.artiozelegitim.org/programlar.asp?kat_id=42&id=260 .

Mundarija

KIRISH	3
NOGIRONLIK AYB EMAS	4
INKLYUZIV TA'LIM NIMA?	6
KORREKSION SINFLAR, UNDA TA'LIM OLADIGAN O'QUVCHILAR TASHXISI, ULARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	10
PEDAGOG XODIMLAR FAOLIYATI VA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK	11
DAVR TALABI VA DAVLATIMIZ SIYOSATI.....	15
INKLYUZIV TA'LIM TAMOILLARI	16
XULOSA.....	20

FARZANDINGIZNING HUQUQI HIMOYALANGAN

nomli ota-onalar uchun metodik qoʻllanma

Muharrir: M.Talipova
Musahhih: I.Tursunova
Kompyuterda tayyorlovchi: G.Ibragimova

Bosishga ruxsat etildi 28.12.2022.
Qog‘oz bichimi 60x84^{1/8}. TIMES garniturasini
Shartli bosma tabog‘i 3,2. Nashr tabog‘i 2,2
Adadi 1000. Buyurtma № 15-12.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti
Toshkent, Komolon ko‘chasi, Erkin tor ko‘chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko‘chasi, 6-uy.